


## Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari

(2022 yil yanvar oyi davomida)



2022-yil yanvar oyida kelib tushgan jami 75 ta murojaatlarning 18 tasi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining virtual qabulxonasi orqali, 32 tasi qo'mitaning elektron pochtalari orqali, 9 tasi Qo'mita rahbariyati tomonidan o'tkazilgan sayyor qabullar orqali, 16 tasi to'g'ridan – to'g'ri kelib tushgan.

# Davlat statistika qo`mitasiga jismoniy va yuridik shaxslardan hududlar kesimida kelib tushgan murojaatlar tahlili (2022 yil yanvar oyi holatiga)



Davlat statistika qo`mitasiga kelib tushgan murojaatlarning asosiy qismi Toshkent shahridan 31 ta murojaatlarni (jamiga nisbatan 41,3 foizi) tashkil etgan. Shuningdek, Toshkent viloyatidan 2 ta (2,7 foiz), Samarqand viloyatidan 7 ta (9,3 foiz), Sirdaryo viloyatidan 7 ta (9,3 foiz), Navoiy viloyatidan 6 ta (8,0 foiz), Qoraqalpog`iston Respublikasidan 5 ta (6,7 foiz), Andijon viloyatidan 4 ta (5,3 foiz), Jizzax viloyatidan 3 ta (4,0 foiz), Namangan viloyatidan 3 ta (4,0 foiz), Qashqadaryo viloyatidan 3 ta (4,0 foiz), Surxondaryo viloyatidan 2 ta (2,7 foiz), Farg`ona viloyatidan 1 ta (3,5 foiz), Xorazm viloyatidan 1 ta (1,3 foiz) murojaatlar kelib tushgan.




# Murojaatlar: (mazmun-mohiyati bo'yicha)

2022-yil yanvar oyi holatiga

Kelib tushgan murojaatlarning mazmun-mohiyati yuzasidan qilingan tahlillarga ko'ra:



22 tasi (jamiga nisbatan 29,3 %) Respublikaning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish statistik ko'rsatkichlariga oid ma'lumotlarni taqdim etish yuzasidan



25 tasi (33,3 %) korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registr bazasiga kiritish, statistik kodlar berish masalasi yuzasidan



4 tasi (5,3 %) nafaqa hujjatlarini rasmiylashtirish uchun ish staji, ish haqi to'g'risida arxiv ma'lumotlarini olish masalalari yuzasidan



10 tasi (13,3 %) statistik hisobotlarni to'ldirish va taqdim etish bo'yicha tushuntirish yuzasidan



11 (14,7 %) o'z faoliyatini amalga oshirish uchun amaliy yordam olish yuzasidan




3 tasi (4,0 %) boshqa masalalar yuzasidan murojaatlarni tashkil etgan



## Murojaatlarni ko'rib chiqish holati:

2022-yil yanvar oyi holatiga

Jami: 75



Davlat statistika qo'mitasiga kelib tushgan jami 75 ta murojaatlarning 56 tasi ijobiy xal etilgan, 19 tasi tushuntirish berilgan.

Tahlillarga ko'ra, murojaatlarning jamiga nisbatan 37,3 % (28 ta) jismoniy shaxslar va 62,7 % (47 ta) yuridik shaxslarning murojaatlariga to'g'ri kelgan.

## Eslatib o'tamiz:



O'z faoliyatingizda statistika idoralari bilan bog'liq masala va muammolarga duch keldingizmi, statistik yoki tahliliy ma'lumot olishni xohlaysizmi, quyidagilar orqali murojaat etishingiz mumkin:

Ishonch telefonlari:

**(71) 202-81 80**

Elektron pochta manzilimiz:

**info@stat.uz**



O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Virtual qabulxonasi faoliyatini yanada takomillashtirish, jismoniy va yuridik shaxslar uchun davlat organlariga murojaat qilishda qo'shimcha qulayliklar yaratish maqsadida, 2018- yil 1- fevraldan e'tiboran O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Virtual qabulxonasi axborot tizimining yangi talqini ishga tushirildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Virtual qabulxonasining axborot tizimi jismoniy va yuridik shaxslarga o'z murojaatlarini Internet tarmog'idan [pm.gov.uz](http://pm.gov.uz) manzilidagi veb-sayti orqali davlat organlari rahbarlariga yuborish imkoniyatini beradi.

Siz, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Virtual qabulxonasi axborot tizimining 2- bo'limidagi Davlat qo'mitalari ro'yxatidan Davlat statistika qo'mitasini tanlab, o'z murojaatingizni yuborishingiz mumkin.

**Davlat statistika qo'mitasi Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash va ijro intizomi nazorati boshqarmasi boshlig'i: F. Berdibayev telefon raqam: (71 202 81 77)**